



## 19-ASRDA 40-YILLARIDA CHOR ROSSIYA VA BUYUK BRITANIYANING XIVA XONLIGIGA TA'SIRI OGAGHIY ASARLARIDA YORITILISHI

Odilov Og'abek Odil o'g'li

TDSHU talabasi

Ilmiy rahbar: Po'latov Suhrobjon

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlarida Chor Rossiyaning va "Sakkiz oyoq"deb ta'riflangan Buyuk Britaniyaning jirkanch ishlarini qisman yoritib bergan. Peroviskiyning harbiy ekspeditsiyasi natijalari hamda Hopkrik fikrlari, shuningdek Muhammadjonovning mulohazalar to'g'risida.

**Kalit so'zlar:** Ebot, messiya, Shekspir, davr, Xonqa, Hozarasp, Peroviskiy, Zalesov.

19-asrning 40-yillari Xiva xonligi uchun juda kir kechdi. Chunki shimoldan Rossiya janubdan Buyuk Britaniya siquvi ostida qolib ketgan edi. Xiva xonligini egallash Kasbiy dengizida hukmronlik qilishligini bilgan ikki davlat bor kuchi bilan xonlikni buysundirishga kirishdi. Budavrda xon Olloqulixon bo'lib, uning atrofida Ogahiydek tarixnachi va ishongan odami bor edi.

Ingliz tarixnavisi Hopkrik bu davrni juda yaxshi ta'riflaydi: "Sharqiy Hindiston kompaniyasi kapitan Artur Konnoli 1842-yilda josuslik qilgani uchun Boxoroda boshi kesilishidan oldin aytgan iborada Chor Rossiyasi va Viktoriya davridagi Angliya o'rtasida O'rta Osiyoda ustunlik uchun "Buyuk o'yin" o'ynalgan. Britaniya imperiyasining boyligining kaliti bo'lgan Hindiston xavfsizligi xavf ostida edi. 19-asrning boshlarida o'yin boshlanganda, ikki imperator davlatining chegaralari bir-biridan ikki ming mil uzoqlikda, keng cho'llar va deyarli o'tib bo'lmas tog' tizmalari bo'ylab yotar edi; oxiriga kelib, ikki raqibni faqat 20 milya ajratdi".

"Buyuk o'yin" atamasini juda o'rinli ishlatgan. Tarixda hech qachon tasodifan, bo'lmaydi voqealar oldindan rejalashtirilgan bo'ladi degan gap bor. Bu afsuski haqiqat. Bu haqiqat bahonasida qanchadan qancha insonlar, begunoh odamlarning qoni daryo bo'lib oqadi. Bir million aholisi bo'lgan xiva xonligining taqdiriga ham shular yozilgan edi. Rossiya bilan munosabatlar buzilishiga sabablar ko'p bo'lgan.

1. Chor Rossiyasi O'rta Osiyoning Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi bilan qizg'in savdo aloqalarini olib borayotgan bo'lsada Xiva xonligining tutgan tashqi siyosati bois ular bilan iqtisodiy bog'lanish omilani kamaytirar edi.

2. Xiva xonligiga qaram bo'lgan ba'zi ko'chmanchi qabilalar rus fuqarolarini asrga olib, ularni qiynab Urganch, Xonqa, Xazorasp kabi qul bozorlariga olib borib sotishardi. Bu tabiiyki Rossiya hukmron doiralarini xiva xonligi tutgan siyosatiga barqaror munosabatni yo'qqa chiqarardi.

3. Rossiya fuqaroligini olgan qozoq xonliklarining ichki ishlariga aralashgayotgan Xiva xonligiga nisbatan iqtisodiy hamda harbiy saksiyalarni paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi.

Ogahiy bu masalalar bo'yicha xonga qancha maslahat bermasin Olloqulixon o'z bilganidan qolmadi. Buning natijasi ularoq N.Zalesov malumotlariga kora 1836- yilda Xiva xonligi savdogarlari qamoqqa olinadi va ularning mol-mulklari musodara qilinadi. Buning ustiga 1839-yilda Perovskiy boshchiligidagi harbiy missiya jo'natiladi. Bundan xabar topgan Buyuk Britaniya hukmron doiralari tashvishga tushib Ebot va Sheksper boshchiligidagi elchilarning Olloqulixon saroyiga jo'natadi. Ularning asosiy talabi Xiva xonligidagi rus qullarini ozod etishdan iborat edi. Mening fikrimcha ular bu yo'l bilan josuslik qilmoqchi bo'lishgan.Ogahiyning yozishicha, Shekspir Xiva xoni Olloqulixon va uning vaziridan rus asirlari bilan birga Orenburgga yuborishlarini so'ragan. Xonning roziligi bilan Shekspir rus asirlari orasida Xiva xonligidan Rossiyaga yuborilgan. Bu haqida Ogahiy o'zining "Riyoz ud-davla" asarida Xivada taxminan mingga yaqin rus asiri boligini, bu asirlarning mavjudligi Xiva va Rossiya o'rtasida nizolar keltirib chiqarganligini ta'kidlagan. Shekspir Rossiya chegarasiga o'tishi bilanoq o'zini Xiva xonligidagi rus asirlarini «ozod etuvchi» deb e'lon qildi (Muhammadjonov, 1957-y).

Mening fikrim dalili sifatida;Rus tarixchilarida Shekspirning qullarni ozod qilishi josusning diplomatik mahorati bo'lib qolmasdan, balki Xiva xonining Perovskiy ekspeditsiyasidan xavfsirashi orqali bo'lganligi yoziladi. Bundan tashqari N.A.Xalfin ma'lumotiga ko'ra, Shekspir Aleksandrovska va Orenburg orasidagi qalalarni o'rganish maqsadida yuborilib, shunchaki qullarni yetakchisi sifatida yo'lga tushgan. Shuningdek,Xalfin Orenburgga Shekspir kelmasdanoq inglizlarning bu hududda josusi bo'lganligini aytadi

#### "OGAHYIY ASARLARIDA XIVA XONLIGINING ANGLIYA BILAN MUNOSABATLARI"

**Jahongir RAZZAQOV** maqolasidan.

Bu fikrni haqiqatga qanchalik yaqin ekanligini Ogahiyning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning yozishicha, rus asirlarini o'z vatanlariga kuzatish Rossiya tomonidan Aitovga, Xiva xoni tomonidan mufti Otaniyozxo'jaga topshirilgan. Ogahiy bu haqida shunday deydi: "...va inglisdin elchi bo'lub kelgan bir shaxs sohibkim, o'rus yurtig'a borug'a mayl ko'rguzub, ijozat tilab erdi. Ani ham hamul elchilarga hamrox qilib yubordi"-deb yozadi o'z asarlarida. ogahiy ham sezganda. Ingliz missiyasining vakili bo'lgan Sheksper Aleksandrvoskga rus fuqarolarini olib boradi. Perovskiy uning josusligini angelaydi lekin hech kimga bildirmaydi.Sank-Peterburgdan borgandan so'ng hukmdor Nikalay bir tomonidan Sheksper maqtov eshitadi. Uning asosiy maqsadi Xiva xonligi hamda hozirgi Qozog'istonning g'arbiy qismida joylashgan ayrim qal'alarni joylashuvi hamda ularning bir-biri bilan iqtisodiy bog'liqligini o'rganishdan iborat edi Bu ishlarni ortiq bilan bajardi deb o'ylayman.Bu xizmatlari uchun qirolicha Viktoriya tomonidan munosib ravishda mukofotlandi.

Ushbu davrning bizgacha yetkazib berilgan asarga" Riyoz ud davla "dir. Ushbu asar bo'lmagandan biz o'sha davrni yaxshi tushunmagan, anglamagan bo'lardik. Muhammad Rizo Ogahiy umrining oxirigacha bir millat ,bir din, bir til vakili bo'lgan 3 ozbek davlatini birlashishini, birlashganda ham Chor Rossiyasi va Buyuk Britaniyaga qarshilik davlat



bo'lishini orzu qilgan. 1840- yillar tarixini yozishda muhammad rizo ogahiy tinglasa oladigan tarixning o'zi bo'lmagan shunchalar ajoyib lik bilan yozar ediki tarixni xolis baholash biroz bayon etgan.

XIX asr 40-yillariga kelib Britaniya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklarida o'zlarining siyosiy jihatdan to'la hukmronliklarini o'rnatish va Rossiyaga qarshi uch xonlikdan iborat ittifoq tuzishga harakat qildilar(Muhammadjonov, 1957-y).Mana shu xulosalar asosida Muhammad Rizo Ogahiy asarlarining mazmuni turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.«MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI» Toshkent - 2020.

2.Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: Фан.1957.

3.Vikipediya ma'lumotlari.

4.Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray.